



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

Reggio Pedagogika:

KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LI

Pedagoglar uchun tavsiyalar



Toshkent – 2025

UO'K: 373.2:159.922.7

KBK: 88.69-99

“Reggio pedagogikasi: kreativlikni rivojlantirishning samarali yo‘li” nomli pedagoglar uchun tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ilmiy uslubiy Kengashining 2025-yil -maydagi -sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan. Toshkent – 2025. 76 bet.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limda pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish, kreativlikka, muammolarni hal etishning samarali yo‘llarini yaratishda, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga tayyorlash, ularning yosh va individual xususiyatlarini, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash dolzarb bo‘lib bormoqda. Shunday ilg‘or yondashuvlardan biri - Reggio pedagogikasi bo‘lib, u bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda. Mazkur metodik tavsiyada pedagoglar bolaning ijodiy salohiyati va kreativligini shakllantirish, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va ijodkorligini namoyon qilishda Reggio pedagogikasining nazariy asoslari va tamoyillari, amaliy qo‘llanilishi keltirilgan bo‘lib, pedagoglar uchun foydali tavsiyalar berilgan.

[Mualliflar]

Y.Risyukova, M.Pardayeva, Z.Sangirova, S.Mo‘minov, S.Matkarimova

[Mas’ul muharrir]

O‘.Odiljonov — O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo‘lim boshlig‘i.

[Taqrizchilar]

M.Raxmanova — Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası professori, p.f.d..

Reggio pedagogika



MUNDARIJA


KIRISH	6
1. BOB. REGGIO PEDAGOGIKA ASOSLARI	7
1.1. Reggio pedagogikasi nima, uning tarixi va afzalliklari	7
1.2. Reggio pedagogikasining asosiy tamoyillari va amaliyot	10
1.3. Atrof-muhitning bolalar rivojlanishidagi o'rne va ahamiyati	13
2. BOB. TA'LIM OLUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH.	18
2.1. Kreativlik tushunchasi va uni rivojlantirishning ahamiyati	18
2.2. Ijodkorlik va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik	21
3. BOB. REGGIO PEDAGOGIKASINING AMALIY JIHATLARI.	26
3.1. Ijodiy muhit va amaliyot maydonini yaratish	26
3.2. Ta'lim oluvchilar bilan ishlash usullari va texnikasi	33
4. BOB. SAMARALI AMALIYOTLAR.	38
4.1. 1-KEYS: Maktabgacha ta'limda amalga oshirish	38
4.2. 2-KEYS: Maktab ta'limida amalga oshirish	42
4.3. 3-KEYS: Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar	48
5. BOB. NATIJALARNI BAHOLASH.	68
5.1. Kreativlik rivojlanishini baholash mezonlari	68
5.2. Kuzatish va tahlil qilish metodikalari	70
5.3. Samarali natijalardan misollar	71
XULOSA	74

KIRISH

Bugungi kunda globallashtirish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarda shaxsiy rivojlanishni ta'minlovchi, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va innovatsion g'oyalarni ilgari surishga qodir muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish vazifasini qo'yimoqda. Bunday sharoitda pedagoglardan ta'lim jarayonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, raqamli va axborot-kommunikatsiya muhiti-da samarali ishlay olish ko'nikmalariga va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy eta oladigan yuqori salohiyatli mutaxassis bo'lish zarurligini taqozo etmoqda.

Mazkur tavsiyada innovatsion yondashuv Reggio pedagogikasining nazariy asoslari, kelib chiqish tarixi, afzalliklari, tamoyillari va amaliyotda qo'llanilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Reggio pedagogikasida bola ta'lim jarayonining markazida bo'lib, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu yondashuvda o'qituvchi – bolaning o'rganish jarayonidagi yo'lboshchisi, hamkori va kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi muhim.

Ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilishda pedagoglarni metodik qo'llab-quvvatlash, pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish va samarali usullarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.



1. BOB. REGGIO PEDAGOGIKA ASOSLARI

1.1. REGGIO PEDAGOGIKASI NIMA, UNING TARIXI VA AFZALLIKLARI.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, muammolarni ijodiy yechishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga qodir faol fuqaroni tarbiyalashni talab etmoqda. Bu maqsadga erishish uchun an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmay qolayotgan bir paytda, pedagogik nazariya va amaliyotda yangi, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Shunday ilg'or yondashuvlardan biri - **Reggio Emilia pedagogikasi** bo'lib, u Italiyada XX asrning o'rtalarida shakllangan va bugungi kunda butun dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda.



Reggio pedagogikasi nima?

Reggio pedagogika — bu har bir bola o'ziga xos g'oyalar, fikrlar va qobiliyatlarga ega bo'lgan shaxs degan g'oyaga asoslangan ta'lim yondashuvidir.

Reggio pedagogikasi erta bolalik ta'limiga innovatsion yondashuv bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin Italiyaning kichik Reggio Emilia shahrida paydo bo'lgan. Bu usul bolaning shaxsiyati, uning ijodiy salohiyati va tadqiqotchilik ruhini rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos falsafa tufayli butun dunyoda mashhurlikka erishdi. Bu yondashuvda o'qituvchi- bolaning o'rganish jarayonidagi yo'l boshchisi, hamkori va kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi muhim.

Reggio pedagogikasi o'zining markaziga bolani qo'yadi. Bu yondashuvga ko'ra, bola tug'ilganidan boshlab bilim olishga, dunyoni kashf etishga qodir shaxs sifatida qaraladi. Reggio Emilia pedagogikasi Ikkinchi jahon urushidan keyin, 1945-yilda Italiya shimolidagi Reggio Emilia shahrida paydo bo'lgan. Urushdan keyingi davr-



da bu hudud aholisi yangi, insonparvar va demokratik jamiyatni qurishda odamlar o'z kuchlarini erta bolalik davridagi ta'limga sarflash ya'ni bolalarni erkin, mustaqil va ijtimoiy ongli tarzda tarbiyalash zarurligini anglab yetadi. Shu maqsadda mahalliy aholi tomonidan Reggio Emiliadan yetti kilometr uzoqlikdagi Villa Cella qishlog'ida yosh bolalar uchun maktab qurildi. Xalq bu oddiy maktab bo'lishini xohlamadi. Buning o'rniga, bu ta'lim maskani bolalar o'rganishi uchun barcha sharoitlar mavjud bo'lgan, qizishlarini uyg'otadigan va hamma hurmat qiladigan, bolalarni rag'batlantira oladigan joy bo'lishini xohlashadi. Bu jarayonda italiyalik pedagog va psixolog Loris Malaguzzi faol ishtirok etib, pedagogik konsepsiyaga nazariy asos yaratadi va Reggio metodikasining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, har bir bola o'z tabiiy qobiliyatlari bilan tug'iladi va ularga sharoit yaratilsa, o'z salohiyatini ochib bera oladi.



Shuningdek, u bolalarning rivojlanishida o'zaro hurmat, ochiq muloqot, ijodkorlik va tajriba asosidagi o'rganish muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Aynan shu tamoyillar asosida Reggio pedagogikasi shakllangan bo'lib, ta'limga yondashuvi bolalarga qaratilganligi bilan mashhur bo'ldi. 1987-yilda har yili o'tkaziladigan Yosh bolalar ta'limi milliy asosida Reggio pedagogikasiga xalqaro qiziqish ortdi va shundan buyon davom etib kelmoqda. Bugungi kunda Reggio Emilia yondashuvi 145 dan ortiq mamlakatlar tomonidan qabul qilingan.

Bu pedagogik modelda o'qituvchi rahbar yoki nazoratchi emas, balki bolaning bilim olish jarayonidagi hamkori va yo'l ko'rsatuvchisi bo'lib xizmat qiladi. O'quv muhitining o'zi esa "Uchinchi o'qituvchi" sifatida e'tirof etiladi – bu degani, maktab yoki bog'cha muhitining har bir detali bolani qiziqtiradigan, u bilan muloqotga kirishadigan darajada sharoit va jihozlar bilan ta'minlanishi muhim hisoblanadi. Reggio pedagogikasining yana bir muhim jihati – bu ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishidir.



Reggio pedagogikasining asosiy g'oyalari:

- ✓ bola – faol va qobiliyatli shaxs;
- ✓ bola tug'ilganidan boshlab o'rganishga tayyor va o'z fikriga ega bo'ladi;
- ✓ o'qituvchi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi emas, balki sherik, kuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida bo'lishi zarur;
- ✓ bola o'zini ifodalashda nafaqat til, balki rasm, harakat, musiqa, o'yin, loy, tabiiy materiallar kabi ko'plab materiallardan foydalanishi darkor;
- ✓ muhit estetik, ochiq, tartibli va ijodiy bo'lishi kerak;
- ✓ o'quv materiallari esa bolani mustaqil kashf qilishga undashi maqsadga muvofiq.



Reggio pedagogikasining bolalar rivojlanishidagi afzalliklari:



01

Mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirish.

Bolalar qaror qabul qilishni, o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni va vaqtlarini boshqarishni o'rganadilar.



02

Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish.

Ijodkorlik tufayli bolalar o'z tasavvurlarini rivojlantiradilar va o'z fikrini erkin bildirishni o'rganadilar.



03

Ijtimoiy ko'nikmalar.

Loyihalarni bajarishda hamkorlikda ishlash muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.



04

Hissiy rivojlanish.

Bolaning hissiy ehtiyojlariga e'tibor berish empatiya, o'ziga bo'lgan ishonch va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabat bo'lishni rivojlantiradilar.

1.2. REGGIO PEDAGOGIKASINING ASOSIY TAMOIYILLARI VA AMALIYOT

Reggio Emilia pedagogikasi bolani mustaqil, qobiliyatli, faol shaxs sifatida ko'rishga asoslanadi. Bu yondashuv bolaning tabiiy qiziqishlari, qobiliyatlari va izlanishlariga tayangan holda rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Reggio Emilia yondashuvi qat'iy va oldindan belgilangan o'quv dasturini emas, balki bolalarning ehtiyoji, qiziqishi va tashabbuslariga asoslangan moslashuvchan ta'lim jarayonini taklif etadi.



Ushbu pedagogikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

01

Bolalar faol shaxslar hisoblanadi

Har bir bola tug'ma bilim olish salohiyatiga ega bo'ladi. Ular o'z atrofidagi dunyoni faol kuzatish, tajriba o'tkazish va muloqot orqali o'rganadi.

02

Qulay muhit – "Uchinchi o'qituvchi"

Bolalar uchun maxsus tashkil etilgan, estetik, xavfsiz va ochiq muhit ularning kreativlik va o'rganishini qo'llab-quvvatlaydi.

03

100 til nazariyasi

Bola o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash uchun turli vositalardan (*rasm, musiqa, harakat, so'z, loy, o'yin va boshqalar*) foydalanadi. Bu usullar teng qadrlanadi va bolaga keng ifoda imkoniyatini beradi.

04

Ishtirok

Ta'lim jarayonida bola, ota-onalar yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs, o'qituvchi va atrof-muhit birgalikda faol ishtirok etadi. Har bir ishtirokchi bola rivojida muhim rol o'ynaydi.

05

Tinglash

Bolalar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi bir birini tinglash va fikr almashish madaniyati muhim hisoblanadi. Bu o'zaro ishonch va muloqotni rivojlantiradi.

06

Guruhiy va individual ta'lim

Bolalar o'rganish jarayonida mustaqil va jamoa bilan ishlashda rag'batlantiriladi. Bu ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

07

Tadqiqot

Bola va o'qituvchi o'rtasidagi doimiy izlanishlar orqali o'rganish jarayoni chuqurlashadi. Tadqiqot bolaning savollariga javob topish orqali amalga oshiriladi.

08

Hujjatlashtirish

O'rganish jarayoni yozuv, surat, video yoki boshqa vositalar bilan qayd etiladi. Bu bolani rivojlanish jarayonini kuzatish va baholash imkonini beradi.

09

Progettazione

Ta'lim jarayoni rejalashtiriladi, lekin qat'iy emas. Jarayon doimiy ravishda bolalarning ehtiyojlariga qarab yangilanib boradi.

10

Tashkilot

O'quv muhiti va vaqtni tashkil etish bolalarning mustaqil fikrlashi va izlanuvchanligini qo'llab-quvvatlaydigan tarzda quriladi.

11

Davomiy baholash

Bolalarning rivojlanishini doimiy va norasmiy tarzda baholanadi. Bu baholash bolani taqqoslash emas, balki uning individual yutuqlarini aniqlashga qaratiladi.

12

Kasbiy rivojlanish

O'qituvchilar o'z ustida doimiy ishlaydi, tajriba almashadi va reflektiv amaliyotni rivojlantiradi.

Bu yondashuvlar har bir bolani o'ziga xosligini qadrlaydi va uning salohiyatini to'liq ochib berishga intiladi.

O'qituvchi asosiy bilim manbai bo'lgan an'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, Reggio pedagogikasida bola ta'lim jarayonida markaziy rol o'ynaydi. Reggio pedagogikasida aniq o'quv dasturi mavjud emas. Buning o'rniga, maktab va bog'chalar ushbu yondashuv tamoyillaridan foydalanadi. Bunda har bir bolaning o'z qiziqishi qarab ta'lim yo'nalishida hamkorlikda ishlaydi. Shu maqsadda qat'iy o'quv dasturi asosida ishlamaydi, chunki o'rganishning har bir elementi o'rganilishi va kashf etilishi kerak bo'lgan yangi mavzularni kiritadi.

Reggio pedagogikasida ta'lim jarayonlari o'yinga asoslangan bo'lib, bolalarga o'z qiziqishlarini kashf qilish va o'rganish uchun amaliy izlanishlardan foydalanish imkonini beradi. O'yinni vosita sifatida ishlatib, bolalar atrofdagi dunyoni o'rganish uchun barcha beshta his-tuyg'ulardan foydalanishga faol da'vat etiladi. Bu o'rganishga shoshilinch tarzda oldinga siljish imkonini beradi.

Ta'lim muhiti — “Uchinchi o'qituvchi” tushunchasi

Reggio pedagogikasida o'quv muhitiga alohida e'tibor qaratiladi. Sinf xonasi yoki bog'cha faqat binodan iborat emas; u bolaning fikrlashi, o'rganishi va o'zini ifoda etishiga ilhom beruvchi makon bo'lishi kerak. Yorug'lik, ranglar, tabiiy materiallar,



ochiq maydonlar – bularning barchasi “Uchinchi o‘qituvchi” sifatida xizmat qiladi. Muhit doimo o‘zgaruvchan va bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda moslashtiriladi. Shu bilan birga ushbu yondashuvda bolalar, ularning oilalari va mahalliy hamjamiyatining madaniyati va kontekstini aks ettiradi. Asosiy e’tibor yoqimli estetika, mehmondo‘st va iliq muhit hamda bolalarning san’at asarlari va loyihalari namoyishi etadigan burchaklar tashkil etilishiga qaratilgan. Har bir bola barcha o‘quv materiallariga oson kirish imkoniyatiga ega.

Asosiy tushunchalar	Reggio pedagogika	An’anaviy pedagogika
Pedagoglar	Ta’lim jarayonining markazida bola bo’ladi	Ta’lim jarayonining markazida o’qituvchi bo’ladi
Ta’lim oluvchilar	Reggio Emilia yondashuvida bolalar o’zlarining o’rganish va qiziqish sohalarini belgilashga qodir	O’qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan ma’lumotlarni o’zlashtirishlari kerak
Sinf xonasi	“Uchinchi o’qituvchi” sifatida ko’proq ma’no kasb etadi	O’quvchilar va o’qituvchilar dars o’tish va o’rganish uchun egallagan joydir
Mazmun	Bolalarni qiziqtiradigan va hayajonlantiradigan mavzularni o’rganishadi	Qat’iy tartiblarga amal qiladi
Baholash	Bolalar bajargan ishlari orqali, kuzatishlari va xulosalar yig’iladi	Bolalar test, yozma, og’zaki va amaliy ishlar orqali baholanadi
Tillar	100 ta til harakat, rang, tovush	Bir nechta tillarni qo’llab-quvvatlaydi

1.3. ATROF-MUHITNING BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI O’RNI VA AHAMIYATI

Atrof-muhit ta’lim oluvchilar rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu muhitni to’g’ri tashkil qilish orqali pedagoglar ularning ijodiy, intellektual va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta natijalarga erishishlari mumkin. Reggio pedagogikasida atrof-muhitni samarali tashkil etish, bolalar uchun ijobiy tajriba



yaratish va ularning rivojlanishini rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa ta'lim jarayonlarida atrof-muhitning inson hayoti va uning sifatiga bevosita va bilvosita ta'sir etishini, xususan, tabiatga bo'lgan munosabatimiz natijasida yuz beradigan o'zgarishlarni to'g'ri tushunish, anglashga o'rgatish muhimdir. Reggio pedagogikasi tabiat va atrof-muhit bilan uyg'unlikka erishish, ta'lim oluvchilarda tejamkorlik, resurslardan samarali foydalanish, tadbirkorlik va ijodkorlikni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.



Bolaning rivojlanishi — bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar ichida atrof-muhit muhim o'rin tutadi. Bola dunyoni eng avvalo o'zini o'rab turgan muhit orqali bilib boradi, o'rganadi, his qiladi va harakat qiladi.

Shu bois, bolalarning har tomonlama sog'lom, baquvvat, faol va ijodkor shaxs sifatida shakllanishida ularning atrof-muhit bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.



Reggio pedagogikasida “Atrof-muhit” tushunchasi keng ma’noga ega bo’lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo’ladi:

- ✓ **jismoniy muhit:** xonalar, jihozlar, o’yinchoqlar, didaktik materiallar, tabiat, qurilishlar va hokazolar;
- ✓ **ijtimoiy muhit:** bola atrofidagi kattalar (o’qituvchi, ota-ona, tarbiyachi) va tengdoshlar bilan bo’lgan muloqotlar;
- ✓ **madaniy muhit:** til, urf-odatlar, qadriyatlar, estetik me’yorlar;
- ✓ **psixologik muhit:** bolaning o’zini xavfsiz, erkin, qulay, qadrlangan va quvnoq, yaxshi kayfiyatda his qiladigan holati.

Shundan kelib chiqib, pedagoglar bolalarning o’sishi va rivojlanishida barcha jihatlarni hisobga olib, muhitni ongli tarzda shakllantirishlari lozim bo’ladi.

Atrof-muhit bolaning quyidagi rivojlanish sohalariga bevosita ta’sir ko’rsatadi:



Jismoniy rivojlanish.

Erkin harakatlanish uchun qulay tashkil etilgan muhit bolada qo’llar, oyoqlar va tana harakatlarini rivojlantiradi. Keng va xavfsiz o’yin maydonchalari, ochiq havoda o’tkaziladigan mashg’ulotlar bolada mushaklar faoliyatini faollashtiradi, koordinatsiya va muvozanatni mustahkamlaydi.



Kognitiv (bilish) rivojlanish.

Atrof muhitda mavjud bo’lgan turli materiallar va stimullar bolaning fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, muammolarni hal qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Rang-barang didaktik materiallar, o’yinchoqlar va kitoblar bolani bilim olishga qiziqtiradi.



Til va muloqot rivojlanishi.

Tashqi muhitdagi odamlar bilan faol muloqotga kirishish imkonini berish bolada og’zaki til ko’nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy muhitning boyligi, so’zlashuvga undovchi sharoitlarning mavjudli-

gi bolaning og'zaki nutqini, lug'at boyligini kengaytiradi.



Ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

Ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit bolada o'ziga ishonch, mustaqillik, empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda o'qituvchi va tengdoshlarining mehribon, qo'llab-quvvatlovchi munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.




Estetik va ijodiy rivojlanish.

Estetik jihatdan toza, tartibli va chiroyli bezatilgan muhit bolada go'zallikka intilish va san'atga qiziqishni uyg'otadi. Rassomlik, qo'l mehnati, musiqa va drama burchaklari bolaning tasavvurini, his-tuyg'ularini, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Reggio Emilia yondashuvida muhit – uchinchi o'qituvchi deb hisoblanadi (birinchi – ota-ona, ikkinchi – pedagog).

REGGIO EMILIA YONDASHUVI



Masalan, bolalar suv haqida qiziqish bildirsa, sinfda suv tajribalari burchagi yaratiladi. Bu ularning kashfiyot, rejalashtirish va izohlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Pedagoglar bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan muhitni yaratishda quyidagilarga e'tibor qaratishlari zarur:

- ✓ erkin harakat va mustaqillik – bolalar materiallarga erkin kirish imkoniga ega bo'lishi;
- ✓ moslashuvchanlik – muhit bolalarning qiziqish-qobiliyatiga qarab loyihalar o'zgarishi kerak;
- ✓ rag'batlantiruvchanlik – muhit bola faolligini rag'batlantirishi lozim;
- ✓ shaxsga hurmat – muhit bola fikrini hurmat bildiradigan tarzda tashkil etilishi lozim (bolalar ishlari devorga ilib qo'yilishi mumkin);
- ✓ xavfsizlik va gigiyena – muhit gigiyenik, xavfsiz va salomatlikka mos bo'lishi zarur.

Atrof-muhit — bu shunchaki tashqi muhit emas, balki bola rivojidagi faol ishtirokchidir.

To'g'ri tashkil etilgan muhit bolada — bilim va ko'nikmalar, mustaqillik, ijtimoiylik, ijodkorlik va hissiy barqarorlikni rivojlantiradi.

Reggio Emilia yondashuvi, Montessori, Vygotskiy kabi nazariyalar barchasi atrof-muhitni ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'radi. Shu bois, o'qituvchi-pedagog va ota-onalar bola o'qiyotgan, o'sayotgan muhitni ongli tarzda tashkil etishlari zarur. Negaki atrof-muhit qanday bo'lsa – bola ham shunday shakllanadi.



2. BOB. TA'LIM OLUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

2.1. KREATIVLIK TUSHUNCHASI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kreativlik, ya'ni kreativlik XXI asrning asosiy kompetensiyasi bo'lib, u nafaqat badiiy o'zini-o'zi anglash, balki ilm-fandan tortib biznesgacha bo'lgan turli kasblarda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi¹. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida kreativlikni rivojlantirish odatiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi va hatto o'zgarishlarga moslashishni oshiradi².

Kreativlik yoki kreativlik - original va noyob g'oyalarni yaratish qobiliyati.

Kreativlik yordamida yaratilgan g'oyaning asosiy xususiyati uni amalga oshirish qobiliyati va u keltiradigan foydadir. Bu uni fantaziya natijasida yaratilgan g'oyadan ajratib turadi.

2014-yilda Kaliforniya universiteti olimlari kreativlikning to'rtta darajasini aniqlovchi model — **4-C modelini** ishlab chiqdilar.



¹ <https://nido.edu.au/news/reggio-emilia-vs-montessori/>

² <https://inbusiness.kz/ru/news/kak-razvit-kreativ-u-detej-obzor-vaznyh-nauchnyh-issledovaniy>


Mini-C kreativligi faqat ma'lum bir shaxs uchun mazmunli bo'lgan va faqat ularga ma'lum bo'lgan g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu darajadagi g'oyalar odatda jismoniy amalga oshirilmaydi va inson ongida fikr sifatida yashaydi. Mini-C ijodkorligi ko'pincha bolalar va maktab o'quvchilarida yangi narsalarni – masalan, yangi so'zlar yoki ta'riflarni o'ylab topishganda paydo bo'ladi.

Little-C kreativligi asosan kundalik fikrlash va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi ijod odamlarga maktabda, ishda yoki uyda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Misol uchun, siz uyda tirnoqlarni ishlattmasdan qanday qilib rasmni osib qo'yishni aniqladingiz. Siz simfoniya yozmaganingiz yoki fizika nazariyasini ishlab chiqmaganingiz aniq, lekin siz kreativlik yordamida hayotingizni yaxshilagansiz.

Pro-C kreativligi o'z sohasida professional deb atalgan kishilarda topiladi. Ular uylarni loyihalash yoki yaxshi matnlar yozish kabi o'z ishlarini yaxshi va samarali bajaradilar.

Big-C kreativligi ajoyib asarlar va ajoyib g'oyalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning bu turi muallifning yuksalishiga va tan olinishiga, shuningdek, dunyoni o'zgartirishga olib keladi. Shu tariqa ilmiy yutuqlar ro'y beradi, yorqin san'at asarlari paydo bo'ladi.

Model odamlarni kreativ va kreativ bo'lmaganlarga ajratmaydi, aksincha, kreativlik rivojlansa, qanday rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi³.



3 <https://skillbox.ru/media/growth/creative-thinking/>



Ilmiy tadqiqotlar kreativlik miyaning nevroplastikligi va o'rganish qobiliyati bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Shimoliy Karolina universiteti olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot (Runco, 2014) kreativlik rivojlangan bolalar yangi sharoitlarga tezroq moslashishlarini va murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishlarini ko'rsatdi. Boshqa bir tadqiqot (Kim, 2011) ijodkorlik darajasi, ayniqsa, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha akademik muvaffaqiyat bilan bog'liqligini aniqladi.

Bundan tashqari, Garvard universiteti (2019) ma'lumotlariga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan bolalar hamkorlik qilish, tanqidiy fikrlash va hissiy intellektni rivojlantiradilar. Bu fazilatlar zamonaviy dunyoda ayniqsa muhim bo'lib, ayniqsa, noan'anaviy yechimlarni topish qobiliyati yuqori ixtisoslashgan bilimlardan kam emas.

Kreativlik muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Bolalikda ijodkorlikni rivojlantirish kasbiy o'sish istiqboliga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon Iqtisodiy Forumi (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, kreativlik ish beruvchilar izlayotgan 5 ta asosiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. LinkedIn ma'lumotlari (2023) shuni ko'rsatadiki, rivojlangan kreativlik qobiliyatiga ega odamlar rahbarlik lavozimlarini egallash ehtimoli ko'proq va mehnat bozorida yuqori baholanadi⁴.



⁴ <https://inbusiness.kz/ru/news/kak-razvit-kreativ-u-detej-obzor-vazhnyh-nauchnyh-issledovaniy>

2.2. IJODKORLIK VA TA'LIM O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Reggio pedagogikasini qo'llash maktabgacha ta'lim ishtirokchilarida ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish orqali har bir bolaning individualligini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda bola asosiy qahramon va o'quv jarayonining markaziga joylashadi. Ta'lim oluvchiga pedagog passiv bilim oluvchi sifatida emas, balki o'z ta'limining faol ishtirokchisi sifatida qaraydi. Pedagog bolaning bilim olishga, o'rganishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Pedagog har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bolalarga yondashadi va moslashadi. Bolalarga yangi narsalarni kashf qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.



Bunday ta'limda pedagog bilan bola o'rtasidagi muloqot katta ahamiyatga ega. Pedagog bolalarning shaxsiyatini ochishga yordam beruvchi va ularga yo'l ko'rsatuvchi hamrohdur. Bolaning idrok etish, bilish va o'zini namoyon qilish usullari cheksiz va xilma-xildir. Bunda pedagog asosiy yo'l ko'rsatuvchidir.





Reggio pedagogikasida pedagog va bola sheriklardir. Pedagog kichkina odamga e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'ladi, uni savol berishga undaydi va tayyor javoblarni taklif qilishdan qochadi, uni o'ylashga va xayol

qilishga undaydi.

Reggio pedagogikasi maktab ta'lim tizimida bolalarining individual ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olgan holda inklyuziv ta'limni o'z ichiga oladi. Reggio pedagogikasida markazga bolalarni qo'ygan yondashuv asosida ishlash bilan birga har bir bolaning o'ziga xos huquq va salohiyatga ega shaxs sifatida qaraladi, bu esa bolalarining o'qish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Reggio pedagogikasida o'qituvchi faqat dars beruvchi emas, balki bolaning bilim olish jarayonidagi yo'l boshlovchi, kuzatuvchi va u bilan birga o'rganadigan o'rganuvchi hisoblanadi. O'qituvchi bolalarning qiziqishlarini kuzatadi, ularga kerakli resurslarni taqdim etadi va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalar esa doimiy ravishda ta'lim jarayonida ishtirok etib, bolalarining rivojiga faol hissa qo'shadi.



Bu yondashuv bilan ishlashda pedagoglar quyidagilarni e'tiborga olishi zarur:

- ✓ **Individual yondashuv.** Har bir bolaning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish.
- ✓ **Ijodiy muhit yaratish.** Bolalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari uchun qulay va ilhomlantiruvchi muhit yaratish.

- ✓ **Hamkorlikni rivojlantirish.** Ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda bo'lish va ularni ta'lim jarayoniga jalb etish.
- ✓ **Doimiy refleksiya.** O'z pedagogik amaliyotini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish.

Ota-onalar bolalar bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratishi muhim:

- ✓ **Faol ishtirok etish.** Farzandi bilan ta'lim jarayonida faol ishtirok etiladi, o'qituvchilar bilan muntazam muloqotda bo'linadi.
- ✓ **Uyda qo'llab-quvvatlash.** Maktabda egallangan bilim va ko'nikmalarni uyda mustahkamlash uchun sharoit yaratib beriladi.
- ✓ **Ijobiy munosabat.** Bolaning qiziqishlari va ehtiyojlariga hurmat bilan yondashish, ularni rag'batlantirish zarur.

Shuningdek, o'qituvchi ta'lim jarayonida ma'ruza qilmaydi. Buning o'rniga o'qituvchi kuzatadi, tinglaydi va savollar beradi. Ular bola bilan birga o'rganadilar. Ular bolalarni chuqurroq o'ylashga, aloqa o'rnatishga, o'z g'oyalarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Masalan, bola nima uchun ba'zi barglar suzadi, boshqalari esa cho'kadi deb hayron bo'lishi mumkin. O'qituvchi: **"Bu suzish deyiladi"**, deb ularga tushuntirmaydi. Buning o'rniga ular bolaning yoniga borib: **"Siz nima bo'lyapti deb o'ylaysiz?"** degan savollar bilan bolani o'ylashga, tahlil qilishga, ijodkorlikka o'rgatadi. O'rganish dialogda, kashfiyotda, bolaga tegishli bo'lgan jarayonlarda sodir bo'ladi.

Bolalarning qobiliyatli qiyofasi Reggio falsafasining o'ziga xos belgilaridan biridir. (Bredekamp, 1993)

Agar bolalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan bo'lsa, bolalar ijtimoiy va akademik jihatdan rivojlanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

(DeVriyes va Zan, 1994)



Guruh yig'ilishlarida bolalar va o'qituvchilar muammolarni muhokama qilishi, kerak bo'lganda hal qilishi, ushbu muammolarni hal qilish uchun qoidalar ishlab chiqishi mumkin. Sinfda jamiyat hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan bolalarda boshqalarga nisbatan o'y tashvish hissi paydo bo'ladi, bu samarali inklyuziyaning ham muhim elementidir.

O'qituvchilar bolalarni sinfning ijtimoiy tabiati haqida suhbatga jalb qilganida, bolalarni o'rgatish tajribalarini rejalashtirishga ham jalb qiladi.

Agar bolalar malakali deb hisoblansa, ular sinfda mutaxassis yoki o'qituvchi rolini o'z zimmalariga olishlari mumkin. Bu esa o'qituvchiga alohida yoki qo'shimcha vaqt va kichik guruhlar bilan ishlash uchun vaqt va imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.

Sinf mashg'ulotlari bolalarga turli xil tengdoshlari bilan hamkorlikda kichik guruhlarda ishlash imkoniyatini berish uchun tashkil etiladi. Bolalar, birinchi navbatda, kichik guruhlarda ishlaydi, bu mazmunli muhokamalar, muammolarni birgalikda hal qilish, kognitiv va ijtimoiy nizolarni samarali hal qilish uchun ijtimoiy kontekst sifatida xizmat qiladi.

Bolalar har kuni muloqot qiladigan tengdoshlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lish-sada, ba'zida o'qituvchi sinfdagi muayyan mashg'ulotlar uchun guruhlar tarkibini belgilaydi.

Reggio pedagogikasida tabiat muhim rol o'ynaydi. Tabiiy materiallar bolalarni tabiiy dunyoni o'rganishga undaydi va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Tabiiy elementlarni o'yin maydoniga kiritish bolaga atrofdagi haqiqiy dunyo bilan yanada yaqinroq aloqada bo'lishga yordam beradi.

Tabiiy materiallardan tayyorlangan mebel va o'yinchoqlardan foydalanish bola uchun ham atrof-muhit ham uchun foydalidir. Tabiiy obyektlar bilan ishlash ko'pincha uzoq vaqt davom etadi, natijada bola yanada o'zini yoqimli his qiladi. Ushlab ko'rish natijasida yanada boy hissiy tajriba beradi.

Tabiatni o'yin va o'quv makoningizga qo'shish bo'yicha ba'zi tavsiyalar quyidagilardan iborat:



Tabiiy bezaklar: bola bilan tabiiy elementlar orqali tajriba o'tkazing – bular an'anaviy, xavfsiz idishdagi o'simliklar, qurigan daraxt shoxlari, yangi gullar va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinchoqlar:

Tabiiy resurslardan tayyorlangan o'yinchoqlarni tanlang – yog'och, bambuk, tabiiy kauchuk, paxta, tabiiy matolar ajoyib tanlov bo'ladi.



Tabiatning erkin qismlari — barglar, urug'lar, toshlar, novdalar va shunga o'xshash materiallar yil davomida bolalarning kuzatuv, tajribasi va ijodiy faoliyati uchun foydali bo'lishi mumkin. Ularni saqlash va namoyish qilish uchun maxsus tabiiy materiallar burchagi tashkil etish tavsiya etiladi.

3. BOB. REGGIO PEDAGOGIKASINING AMALIY JIHATLARI


3.1. IJODIY MUHIT VA AMALIYOT MAYDONINI YARATISH

Reggio Emilia yondashuvi bolani faol, izlanishga moyil va o'z rivojlanishining subyekti sifatida ko'radi. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyalaridan biri – ijodiy muhitni tashkil etishdir. Muhit bu yerda shunchaki fon emas, balki bolaning fikrlashini, his qilishini va harakatlarini rag'batlantiruvchi faol ishtirokchi sifatida qaraladi.



Ijodiy muhit — bu bolalarni izlanishga, kashfiyotlar yaratishga, tajriba qilishga, savol berishga va javob topishga undaydigan estetik, psixologik va pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhitdir.

Ijodiy muhit bolalarda quyidagi salohiyatni rivojlantiradi



Reggio pedagogikasida ijodiy va amaliy muhitni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:



Estetik tamoyil. Muhit vizual jihatdan chiroyli, ranglar uyg'unligi va muvofiqlikka ega bo'lishi kerak. Yorug'lik, oyna, tabiiy materiallardan foydalaniladi.



Ochiqlik va moslashuvchanlik. Muayyan burchaklar (san'at, konstruksiya, tajriba, sensorika) bolalarning qiziqishiga qarab o'zgartiriladi. Materiallar bolalar erkin foydalanishi uchun ochiq holda saqlanadi.



Tajriba orqali o'rganish. Bolalar o'zlari tanlagan materiallar bilan tajriba o'tkazadilar: loy, qum, suv, bo'yoq, yorug'lik va hokazo.




Hamkorlik va ijtimoiylik. Guruh bilan ishlash uchun katta stol va ochiq maydonlar mavjud. Ko'p faoliyatlar dialog, bahs, birgalikda yechim topishga asoslangan.



Amaliyot maydoni: laboratoriya va "atelier"lar. Reggio Emilia yondashuvida bolalar uchun maxsus atelier (ijodiy studiya)lar yaratiladi. Ular kichik yoshdagi bolalar uchun ham ochiq va erkin foydalanish mumkin bo'lgan joylar bo'ladi.



San'at burchagi (atelier). Ranglar, bo'yoqlar, guash, rangli qog'oz, tabiatdan yig'ilgan materiallar (barglar, novdalar, toshlar). Bolalar o'z g'oyasini tasviriy san'at orqali ifoda etadi.



Tajriba burchagi. Suv, yorug'lik, soyalar bilan tajribalar. Mikroskop, lupa, suv o'lchagichlar, magnitlar bilan tanishuv.



Konstruktor va qurilish burchagi. Yog'och bo'laklari, bloklar, lego, arxitektura uchun materiallar. Bolalar fazoviy fikrlash, rejalashtirish va qurish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Pedagog Reggio tizimida faqat bilim beruvchi emas, balki:

- ✓ **Kuzatuvchi:** bolalar qanday materiallarga qiziqayotgani, nimalarni izlayotganini aniqlaydi;
- ✓ **Muhit yaratuvchisi:** bolalarning qiziqishlariga qarab muhitni o'zgartiradi;
- ✓ **Ilhomlantiruvchi:** savollar, fikrlar, loyihalar orqali bolalarni chuqurroq izlanishga chorlaydi.

Bolalarning ijodiy faoliyati jarayonini rasmlar, fotosuratlar, audio, video yozuvlar orqali hujjatlashtirish (saqlash) muhim hisoblanadi. Bu:

bola rivojini tahlil qilish;

ota-onalarga jarayonni ko'rsatish

o'qituvchining refleksiya uchun manba bo'ladi.

Reggio Emilia pedagogikasida ijodiy muhit — bu bolalar uchun o'z g'oyalarini ifodalash, kashf etish, yaratish va rivojlanish imkonini beradigan keng amaliy maydondir. Muhit bola bilan **“Dialog”** olib boradi va uning o'rganishga bo'lgan tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi.

Ijodiy muhit — bu bolaning qo'li va aqli birgalikda ishlaydigan makon. Shunday muhitda tarbiyalangan bola mustaqil, ijodkor va ijtimoiy jihatdan faol shaxsga aylanishi mumkin.


Atrof-muhitning roli. Inson miyasi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u eng yaxshi mustaqil, o'zini o'zi boshqaradigan, qiziqish va shaxsiy sur'atda rivojlanadi. Bu topilmalar bolaning **“Bo'sh idish”** sifatidagi umumiy nuqtai nazaridan farq qiladi, unga kattalar o'z g'oyalari asosida bilimlarni o'zlari buyurgan vaqt va tarzda to'kishlari kerak.

Reggio Emilia falsafasi bolalar qobiliyatli, dunyoga qiziquvchan va potentsialga to'la ekanligiga ishonishga asoslanadi. Ular qo'llab-quvvatlovchi muhitda bilimlarni

mustaqil ravishda qurishlari mumkin. Mustaqil tadqiqot va kattalarning minimal yo'l-yo'riqlari bilan kichkintoylar o'sishi, bilim olishi va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Natijada, bolalar o'z vaqtlarini o'tkazadigan muhitni rejalashtirishga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi sifatida ko'rilgan muhit ilhomlantiruvchi bo'lishi, ijodkorlikni uyg'otishi, izlanishni rag'batlantirishi va asosiy qadriyatlarni aks ettirishi kerak.

Bo'shliqni aniqlash. Bolani o'ynashi, kashf qilishi va yaratishi mumkin bo'lgan alohida hududni aniqlashdan boshlang. Bu joy katta bo'lishi shart emas, lekin u yaxshi tashkil etilgan, moslashuvchan va aniq reja bilan yaratilgan bo'lishi kerak. Yashash maydonining burchagini, bola xonasining bir qismini yoki Reggio pedagogikadan ilhomlangan dinamik o'quv muhitiga aylantirilishi mumkin bo'lgan sokin burchakni ko'rib chiqing.

Tabiiy yorug'lik va ranglar. Tabiiy yorug'lik tinchlantiruvchi makon yaratishda muhim rol o'ynaydi. Iloji bo'lsa, quyosh nuri bo'sh joyni yoritishi uchun o'yin maydonchani derazalar yaqiniga joylashtiring. Yumshoq ranglardan foydalanish osoyish-ta muhit yaratishga yordam beradi.





Yumshoq ranglar juda ko'plab afzalliklarga ega bo'ladi. Ular bolalarni bezovta qilmaydi, tabiat bilan bog'laydi va ular ijodkorlik uchqunlarini keltirib chiqaradi. To'q ranglarda hech qanday yomon narsa yo'q, lekin biz ko'pincha ranglar va naqshlarning ko'pligini inobatga olib, bolalar diqqatini jamlash, tinchlantirish va yaratishni osonlashtirishini inobatga olib tanlashni tavsiya qilamiz.

Moslashuvchan mebel va tartib. Moslashuvchanlik Reggio pedagogikada o'yin maydoni kaliti hisoblanadi. Turli tadbirlarni amalga oshirish uchun osongina ko'chirilishi yoki qayta sozlanishi mumkin bo'lgan mebellarni tanlash zarur. Past, oson kirish mumkin bo'lgan javonlar bolalarning mustaqillik tuyg'usini kuchaytirib, materiallarga mustaqil ravishda erishish imkonini beradi.

Qulay o'yin maydonni yaratish uchun bolangizni o'ynashi yoki loyihalar ustida ishlashi mumkin bo'lgan kamida bitta bolalar stoliga ega bo'lishi kerak. Biroq, hamma narsa stolda bajarilmaydi. Qattiq yuzaga qo'shimcha ravishda, polda yumshoq, jozibali bo'sh joy ham tashkil qilish ham juda muhimdir. Qulay gilam ta'minlang, shuningdek, yumshoq yostiqlarni qo'shishingiz ham mumkin.

O'yin maydonining boshqa muhim elementlari. Yuqorida keltirilgan toifalarga qo'shimcha ravishda, bolaning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi o'yin maydoniga yana bir nechta muhim elementlarni kiritish zarur:

Yopiq materiallar. Bo'sh joyni Montessori asboblari, boshqotirmalar, mantiqiy o'yinlar va boshqa intellektual rivojlantiruvchi vositalar bilan to'ldirish mumkin. Bunday materiallar bolalarda muammolarni hal qilish ko'nikmasini, qat'iyatlikni, diqqatni jamlash va vazifani oxirigacha bajarish qobiliyatini shakllantiradi.

O'qish va dam olish zonasi. Bolalar uchun o'qish va xotirjam dam olishga mo'ljallangan qulay burchak tashkil etish foydalidir. Masalan, turli yoshga mo'ljallangan kitoblar joylashtirilgan javon atrofida yumshoq yostiqlar, gilam yoki pufiklar qo'yilishi mumkin. Bu bolaga mustaqil ravishda yoki katta bilan birga dam olish, hikoya tinglash, kitob mutolaasi orqali fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Yalpi motorika (yirik harakat) zonasi. Bolalarda jismoniy faollikka ehtiyoj juda yuqori. Har doim ochiq havoda bo'lish imkoni bo'lmaganda, yopiq muhitda ham jismoniy faoliyat uchun sharoit yaratish lozim. Masalan, oddiy gimnastika gilamchasi, kichik to'siqlar yo'li, yumshoq divan, ko'tarilish narvonchasi yoki muvozanat yo'lakchasi kabi elementlar bolaning kuch, muvofiqlashtirish va umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantiradi.

Badiiy ishlar va hujjatlashtirish maydoni. Bolaning ijodiy ishlarini namoyish etish uchun devor yoki maxsus stendning bir qismini ajratish tavsiya etiladi. Bu nafaqat bolaning mehnatini qadrlash, balki o'z faoliyatini aks ettirish (refleksiya) va hujjatlashtirish uchun ham muhim pedagogik vositadir.



Amaliy mashg'ulot "Tabiatdan san'atga"

Ushbu mashg'ulot orqali bolalar tabiatdagi turli materiallar bilan bevosita tanishadi, ularni kuzatadi, teradi va san'at asariga aylantirish orqali o'z fikrini ifodalashga harakat qiladi.

Mashg'ulotning asosiy maqsadi — bolalarning kuzatuvchanligini, tafakkurini, badiiy-estetik didini va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Mashg'ulotni ochishda pedagog (tarbiyachi) bolalar bilan suhbatlashadi: “Tabiat bizga nimalar beradi?”, “Siz qachon oxirgi marta bargni qo'lingizga olib ko'rgansiz?”, “Toshlar qanday bo'ladi – issiqmi, sovuqmi?”, kabi savollar yordamida bolalarning diqqatini jalb qiladi. Keyin tabiatdan yig'ilgan – barglar, toshlar, shoxchalar, urug'lar kabi tabiiy materiallarni stol ustiga joylashtirib, har biriga e'tibor qaratishni taklif etadi. Bolalarga materiallarni ushlab ko'rish, hidlash, solishtirish imkoniyati beriladi.

Keyin har bir bola o'zi yoqtirgan elementlardan foydalanib, qog'oz ustida ijodiy asar yaratadi. Masalan, bargdan daraxt, toshdan uy, ipdan yomg'ir chizilishi mumkin. Yelim, bo'yoq, qalam, jun ip va boshqa yordamchi materiallar orqali rasmni to'ldirish, bezash, chizish taklif etiladi. Bolalar hech qanday oldindan berilgan



namunasiz, erkin tarzda o'z tasavvurlari asosida ishlaydilar. Pedagog ularni kuzatib boradi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga muloyimlik bilan yo'naltiruvchi savollar beradi, ammo tayyor shakllarni berib qo'ymaslikka harakat qiladi.

Mashg'ulot yakunida bolalar o'z ishlarini birgalikda devorga ilib qo'yishadi yoki maxsus namoyish stendida joylashtirishadi. Har bir bola o'z asari haqida qisqacha gapirib beradi: “Men bu yerda osmondan tushayotgan yaproqlarni chizdim”, “Bu mening bog'im, bu yerda qushlar yashaydi” kabi. Tarbiyachi ularning fikrlarini tinglab, e'tirof etadi va har bir rasmni fotosuratga olib, sinf portfoliosiga hujjatlashtiradi.

Mashg'ulot yakunida bolalar birgalikda tabiat haqida kichik xulosa chiqaradilar: tabiat – ilhom manbai, ijod uchun cheksiz imkoniyatdir.



Qiziquvchanlik madaniyatini shakllantirish. Bolalar doimo atrof-muhit bilan faol muloqotda bo‘ladi va ularning eng ko‘p vaqt o‘tkazadigan joyi, albatta, uy muhiti hisoblanadi. Yaxshi tashkil etilgan uy sharoiti bolada mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi, savollar tug‘ilishiga zamin yaratadi hamda ijodiy fikrlash imkonini beradi. Bunday muhit bola qiziqishlarini o‘rganish va ularni rivojlantirish uchun tayanch asos vazifasini o‘taydi.

Reggio pedagogikasining tamoyillarini hayotingizga tatbiq etgan holda, siz nafaqat o‘yin uchun sharoit yaratgan, balki bolada izlanish, ijodkorlik va o‘z fikrlariga bo‘lgan hurmat madaniyatini shakllantirgan bo‘lasiz. Bu esa bolangizda qiziqish va ruhiy qoniqishga asoslangan mazmunli hayot uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi⁵.

3.2. TA'LIM OLUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI VA TEXNIKASI

Loyihaviy faoliyat



Ko‘p jihatdan kreativlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beradigan shakllardan biri bu shaxsning individual rivojlanishiga, ijodiy tashabbuskorlikka, bolalarning mustaqil fikrlash, bilim olish va qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga, qabul qilingan qarorlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishga va harakatlarni aniq rejalashtirishga qaratilgan loyihaviy faoliyatdir.

Loyihaviy faoliyat — umumiy maqsad, kelishilgan usullar, faoliyat turlari va natijasi haqida oldindan ishlab chiqilgan g‘oyalarga ega bo‘lgan bolalarning ta’limiy, kognitiv, ijodiy yoki o‘yin faoliyatidir⁶.

⁵ <https://www.onehundredtoys.com/creating-a-reggio-emilia-inspired-play-space-at-home/>

⁶ Voronina L.V. Rol metoda proyektov v razvitii kreativnosti starshix doshkolnikov.



Motivatsiyaning oshishi va kreativlikning rivojlanishi loyihaviy faoliyatda asosiy xususiyat - mustaqil tanlov mavjudligi tufayli yuzaga keladi. Kreativlikni rivojlantirish va asosiy e'tiborni instrumental yondashuvdan texnologik yondashuvga o'tkazish eng yaxshi natijaga erishish uchun vositalarni mazmunli tanlash va faoliyatni rejalashtirish zarurati bilan bog'liq.


Mas'uliyat hissini shakllantirish ongsiz ravishda sodir bo'ladi: bola, birinchi navbatda, to'g'ri tanlov qilganini o'ziga isbotlashga intiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zini tasdiqlash istagi loyihaviy faoliyat samaradorligining asosiy omilidir. Amaliy muammolarni hal qilishda pedagog bilan hamkorlik munosabatlari tabiiy ravishda paydo bo'ladi, chunki ikkala vazifa uchun ham jiddiy qiziqish va samarali hal qilish istagini uyg'otadi. Bu, ayniqsa, bolaning o'zi bajara olgan vazifalarda yaqqol ko'rinadi.



Bu yondashuvda **“Remida” loyihasi** alohida o'rin tutadi. Remida — bu sanoat chiqindilari va ortiqcha materiallarni qayta ishlash orqali bolalar uchun o'quv resurslariga aylantiruvchi loyiha bo'lib, ularni estetik jihatdan jozibador tarzda taqdim etadi.

Ijodiy qurilish loyihalari. Chiqindi materiallardan foydalanib, bolalar turli xil qurilish loyihalarini amalga oshirishlari mumkin. Masalan:

karton qutilar va rulonlardan minoralar yoki ko'priklar qurish;
plastmassa idishchalar va qopqoqlardan robotlar yoki transport vositalari yasash;
mato bo'laklari va tugmalardan hayvonlar yoki odamlar figuralarini yaratish.



O'yin usullari

Yel universitetining professori psixolog Lourens Shtaynberg 2020-yilda ijodiy o'yinlarning bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot o'tkazgan. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatganki, muntazam ravishda improvizatsiya o'yinlarida qatnashadigan bolalar kognitiv moslashuvchanlikning yuqori darajasini namoyish etadilar, bu ularga o'zgarishlarga tezroq moslashish va qiyin vaziyatlarda noan'anaviy yechimlarni topish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida olimlar turli turdagi o'yinlar taklif qilingan bolalar guruhlarini kuzatganlar: ba'zi bolalar belgilangan qoidalarga ega an'anaviy stol o'yinlarini o'ynasalar, boshqalari improvizatsiyani talab qiladigan o'yinlarda ishtirok etishgan, masalan, oldindan tayyorlangan ssenariysiz rolli teatr tomoshalari va hikoya qilish. Ma'lum bo'lishicha, ikkinchi guruh bolalari nafaqat vazifalarni tezroq bajarishgan, balki yaxshi xotira va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ssenariylarni bashorat qilish qobiliyatini ham namoyish etgan.

Ijodiy o'yinlar bolalarda fikrlashning moslashuvchanligini rivojlantirishga yordam beradi, bu o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyati asosiy ko'nikmalardan biriga aylanib borayotgan zamonaviy dunyoda ayniqsa muhimdir. Bu mahorat nafaqat bolalik davrida, balki keyingi kasbiy faoliyatda, masalan, tadbirkorlik, ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish kabi sohalarda ham foydalidir.



Bolalarni ijodiy yechimni talab qiladigan muammoli vazifalarga muntazam ravishda jalb qilish moslashish qobiliyatini rivojlantirishning kaliti bo'ladi. Misol uchun, boladan o'yinchoq mashinani ko'tara oladigan qog'oz ko'priq qurishni so'rang yoki oddiy narsalardan foydalanishning muqobil usullarini o'ylab topish mumkin.



**“Loose Parts”
o'yinlari**

Bolalar turli xil chiqindi materiallar — tugmalar, mato bo'laklari, plastmassa qopqoqlar, yog'och parchalari, karton qutilar va boshqa shunga o'xshash buyumlar bilan erkin o'ynashadi. Bu o'yinlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Art-terapiya o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi anglash qobiliyatini rivojlantirish orqali shaxsning rivojlanishini uyg'unlashtirishdan iborat. U psixikani bemalol davolaydi, atrofdagi dunyoni tanishtiradi, atrofdagi dunyoni go'zal va mehmondo'st ko'rishga imkon beradi. Art-terapiya bolaga o'z his-tuyg'ularini, tafakkurini modellashtirish, chizish va hokazolar orqali ifodalashni taklif qiladi. Mazkur usulni alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalar bilan ishlashda qo'llash mumkin⁷.



Art-terapiya

Art-terapiya - bu chizish, modellashtirish, musiqa, fotografiya, filmlar, kitoblar, aktyorlik, hikoyalar va boshqalar kabi davolash va psixokorreksiya uchun badiiy texnika va ijodkorlikdan foydalanadigan psixoterapiya usuli.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun art-terapiya ayniqsa samarali bo'lishi mumkin, chunki bolalar nutqi hali rivojlantirmagan va ko'plab holatlar, masalan, g'azab,


⁷ https://artpsy.academy/art-therapy_for_children

qayg'u, qo'rquv ular tomonidan tan olinmaydi va shuning uchun ifoda etilmaydi. Vizual ijodkorlik orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini va tajribalarini erkin ifoda etishlari va ularni amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, bu usul bolalarda mayda motorika, koordinatsiya va kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi⁸.



Art-terapiyaning asosiy maqsadi bolaga hissiy stressdan xalos bo'lishga, uning ichki dunyosini ijodkorlikda ifodalashga, murakkab

his-tuyg'ularni qayta ishlashga va hayotdagi qiyinchiliklardan chiqish manbalari va mumkin bo'lgan yo'llarini topishga yordam berishdir. Art-terapiya paytida



bolalar o'zlarini erkin ifodalaydilar, ichki resurslarni faollashtiradilar va dam oladilar. Natijada, ular hayot muammolarini hal qilishda xatti-harakatlar modelini rivojlantirishga yordam beradigan o'zlarida yordam topadilar. Bundan tashqari — terapevtik ta'sir bilan

birga, ushbu uslub fikrlash va aqlni rivojlantiradi, bolaning kreativligini ochib beradi.

Art-terapiya afzalliklari



Mazkur usul bola rivojlanishining bir necha jihatlarni qamrab oladi: fiziologik, kognitiv, ma'naviy va axloqiy fazilatlar. Biroq, bularning barchasining asosi bolaning uyg'un ruhiy holati, o'zini o'zi sog'lom qadrlashi va o'ziga ishonchidir.

⁸ https://artpsy.academy/art-therapy_for_children

4. BOB. SAMARALI AMALIYOTLAR

4.1. 1-KEYS: MAKTABGACHA TA'LIMDA AMALGA OSHIRISH

Reggio Pedagogika bu shunchaki maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash qaratilgan pedagogika emas, balki u bolani erkin, mustaqil, ijodkor, kreativ fikrlovchi, muammolarga yechim topuvchi, o'z fikriga ega va o'z "men"nini anglagan bola bo'lib shaklanishiga yordam beruvchi pedagogikadir. U Yevropa, Osiyo va



AQSHdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladigan pedagogika bo'lib, natijalar an'ana-viy pedagogika bilan o'qitilgan bolalarning natijalaridan katta farq qiladi.

Reggio mashg'ulotlari bolalarning ijodiy salohiyatini ochishga cheksiz imkoniyatlar beradi. Harakat, nutq, mantiqiy fikrlash, hissiy intellekt va mustaqil rivojlantirishga, kattalar hayotida zarur bo'ladi-

gan va maktabga moslashishga yordam beradigan ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Bolalarni o'rab turgan barcha narsalar ularga dunyoni va o'zlarini tushunishlariga yordam beradi. Reggio pedagogikasida atrofdagi har bir buyum, hodisalarga o'rganish vositalari sifatida qaraladi.

Reggio pedagogikasiga ko'ra ta'limning 6 qoidalari:

Bolani hurmat qiling va uning ko'zlariga qarab gaplashing. Bolalar bilan gaplashganda qanchalik tez-tez ularning ko'ziga qaralsa, pedagog bilan bola o'rtasida ishonch va hurmat kuchayadi. Bolaga har doim yuqoridan qarash, unga yuqoridan turib, topshiriqlar berish, bola bilan pedagogni bir-biridan uzoqlashtiradi. Bola u shaxsni hech qachon o'ziga sherik deb hisoblamaydi. Reggio pedagogikasida

sheriklik juda muhim. Pedagog bola bilan bir xil darajada bo'lishimiz lozim. U bilan baland stulda yoki polda o'tiring va uning ko'zlariga qarab gapiring.

Bolaga qoidalarni tushuntiring va savollar bering.

Bola siz nimani o'ylayotganingizni bilmaydi, undan nimani xohlayotganingizni taxmin qila olmaydi. Asosiy vazifa — qoidalar mavjudligini tushuntirish. Har bir joyning o'z qoidalar to'plami bo'lishi mumkin. Bu qoidalar to'plami har xil joyda har xil bo'lishi mumkin. Biz teatrdan o'zimizni uyimizdagidek tutmaymiz. Har bir joyda qilinadigan xatti-harakat, o'zini tutish hatto kiyimlar ham butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Biz bu qoidalarni bolaga tushunarli, sodda tarzda tushuntirishimiz kerak. Asosiy ushbu qoidalarga nima uchun kerak va ularga nima uchun rioya qilish kerakligini tushuntirish juda muhimdir.


Bolaga savollar beriladi.



Muloqot paytida gapira olish, sukut saqlash, murojaat qilish, o'z fikrini bildirish qanchalik muhimligini bolaga tushuntirish juda muhimdir.

“Noto'g'ri” emas, balki “Boshqacha”

Bola pedagogga “Osmon qizil!” – deyishi mumkin. Tuzatishga shoshilmang, uning fikrini oxirigacha eshitib, nima sababdan bunday fikrdaligini so'rang.



Savollar bering.

- ✓ Osmon qizil bo'lishi mumkinmi?
- ✓ Bu qachon sodir bo'lishi mumkin?
- ✓ Buni ko'rish mumkinmi?
- ✓ Osmon yana qanday ranglarda bo'lishi mumkin?

Bunday savollar bilimlarni kengaytirish uchun turtki bo'lishi mumkin. Biz bola bilan birgalikda tushunishga harakat qilishimiz kerak.

• Tanlov taklif qilish va shoshilmaslik.

Bolada har doim tanlov imkoni bo'lishi lozim. Lekin muhim qoidalardan biri shuki bolada tanlov bor degani, tanlovda chegara yo'q degani emas. Tanlov qilishda shoshilmaslik juda muhimdir. Bola har kuni tanlov bilan duch keladi. Bolada shoshmasdan to'g'ri tanlov qilish ko'nikmasini shakllantirish juda muhim. Bola qanchalik kichik bo'lsa, unda tanlov maydoni kichikroq bo'ladi. Bola kattalashgani sari tanlov maydoni kengayib boradi. Bunda bolaga tanlov qilmoqchi bo'lgan vaziyatda nimalarga ahamiyat berishi kerakligi, nima uchun biror narsa qilishini, nima uchun aynan shu narsani tanlashini bilishi lozim.



• Har qanday vaziyatda o'rganing.

Reggio pedagogikasida bilim olish uchun aniq vaqti yo'q. Misol uchun, bolaga shaxmat o'ynash vaqtida, biz kvadrat, gorizontal, vertikal, o'ng, chap, tepa, past, yo'nalishni o'rgatish mumkin. Reggio pedagogikasida bola biror narsa haqida ma'lumotni faqat kattalardan emas, balki o'z tajribalari, izlanishlari natijasida o'zi mustaqil bilib olishi mumkin.

• O'qishdan ko'ra tasavvur qilish muhimroqdir.

Ko'pgina ota-onalar uchun asosiy maqsad farzandlarini imkon qadar tezroq o'qish va hisoblashni o'rgatishdir. Hozirgi global olamda kerakli ko'nikmalardan biri kre-

ativlik ko'nikmasidir. Reggio pedagogikasi loyihaviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, chunki bolaning katta, kichik loyihalarda ishtiroki bolada ijodiylik, oldindan tasavvur qilish, predmetning xususiyatlarini aniqlash, ular haqida gapirish, ularni chizish va taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.



- **Reggio pedagogikasida muhit.**

Reggio pedagogikasida bolani o'rab turgan muhit ta'lim imkoniyatlarini yaratuvchi ta'lim ishtirokchisidir. Guruhlarda turli xil asboblari va materiallar, o'quv vositalari hatto keraksiz chiqindilar ham bo'lishi mumkin. Reggio pedagogikasining tarafdorlari, bolaga oddiy narsalar „maxsus“ o'yinchoqlardan ko'ra ko'proq narsalari o'rgatishi mumkinligiga ishonishadi.

- **Reggio pedagogikasida o'rganishda noodatiy materiallar.**

Loy, tosh, har xil turdagi qog'oz va karton bo'laklari, daraxt po'stlog'i, shox-shabbalar, quruq o'simliklar va urug'lar, qum, metall zarralari, iplar, patlar, yong'oqlar va boshqalar bularning barchasi o'rganish va ijod uchun kerakli vosita bo'lishi mumkin. O'rganishda bola uchun qiziq bo'lgan har qanday buyumdan foydalansa bo'ladi. U yaroqsiz buyum yoki chiqindi bo'lishi mumkin. Reggio pedagogikasida o'rganish uchun materiallar bolalar tomonidan mustaqil tanlanishi kerak. Bu materiallarni ichkaridan yoki tashqaridan birga izlab topish mumkin.



Reggio pedagogikasida bolalar tayyor o'yinchoqlardan ko'ra atrofdagi oddiy narsalarga e'tibor berish orqali ko'proq narsani o'rganadi. Bolalar bilan turli xil aralash materiallardan foydalangan holda tajriba qilinadilar, tasavvur qilinadilar, chiziladilar va loyihalashtiriladilar. Bu mashg'ulotlar bolalarda ijodkorlik, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish,

chiqindilarni saralash, ularni samarali qayta ishlash ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda bunday mashg'ulotlar asosan o'yinga asoslangan yondashuv orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulot xonasidagi hamma o'quv materiallar bolalar uchun qulay joylashtirilgan, mustaqil o'rganish uchun ochiq bo'lishi lozim.

- **Ota-onalar bilan birga amalga oshirish.**


Bola rivojlanishida muloqot eng muhim omillardan biridir. Nafaqat pedagog bilan balki ota-onalar o'z farzandlari bilan muloqot ham juda muhim. Reggio pedagogikasida pedagog bolalarga uyda ota ona bilan birgalikda qilinadigan topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlar turli xil bo'lishi mumkin. Uyda o'tirib ota-ona bilan chizish, yasash yoki ota-ona bilan uydan tashqarida kuzatish, tadqiqot qilish, izlanish, tadbirlarda qatnashishlar bo'lishi mumkin. Bunday topshiriqlar ota-onalarni farzandlari bilan vaqt o'tkazishlari, ko'proq muloqot qilishlari uchundir.

2-KEYS: MAKTAB TA'LIMIDA AMALGA OSHIRISH

Reggio pedagogikasi yordamida maktab ta'limida chiqindi mahsulotlaridan foydalanib bolalarning kreativlikni, sensor sezuvchanligini va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, mazkur jarayonlarda ota-onalarning ishtiroki ta'lim oluvchilar natijalarining yaxshilanishiga olib keladi. Ularda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, ota-onalar uchun esa farzandining qobiliyatlarini kuzatish, anglash va ta'limda, kasb tanlashda to'g'ri yo'naltirish imkoniyatini beradi.


Chiqindi mahsulotlaridan yordamchi vositalar yasash

- **Kartonlardan tayyorlangan kitob stend (tirgagich)i**



• Ota-onalar yasay olishi mumkin bo'lgan yordamchi vositalar

Tutqich qalamni qo'lda to'g'ri ushlab turishda va takroriy mashqlar orqali qo'l nazoratini yaxshilashga yordam beradi.



Yordamchi vosita qo'lga taqadigan tasma ko'rinishida, qo'lga taqqanda mustahkam turushi va qo'ldan chiqib ketmasligi uchun ikkita uchiga ilgich qo'yiladi. Tasma qo'lga yopishib turushi uchun ichki qismiga



cho'ziluvchan qattiq rezina o'rnatiladi. Qo'l tasmasining o'rta qismiga matoni koptoksimon shaklda qilib qo'yiladi. Yumaloq mato ustiga qo'shimcha 8 soni ko'rinishidagi rezina o'rnatiladi (rezina A va C).

Shunda rezina A qalam uchun, rezina C ko'rsatgich barmoqqa taqiladi.

“Bolam bilan birga bog' yarataylik”



Maqsad bola va ota-onaning birgalikdagi ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, tajribada qo'llash.

✓ **Zaruriy vositalar:** Barg, shoxcha, tosh, qum, suv, urug', po'stloq, gullar va h.k.

Bolalar ota-onasi bilan birga tabiat elementlaridan foydalanib bog' yaratadi. O'z natijasini boshqalarga ko'rsatadi va quyidagilarga javob beradi: Nima yaratdik? Bu g'oya qayerdan keldi? Qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?

San'at va ifoda vositasi sifatida chiqindi materiallar.

Bolalar chiqindi materiallardan foydalanib, o'z his-tuyg'ularini ifodalovchi san'at asarlarini yaratishlari mumkin. Bu orqali ular o'zlarini erkin ifoda etishadi va estetik didlarini rivojlantirishadi.



LED yoritgichli qo'lda tayyorlangan foto dekoratsiya ramkasi.

Bolalar o'z do'stlari yoki oilasi bilan tushgan suratlarini LED chiroq bilan bezatilgan, qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan ramkaga joylashtirib, ezgu xotiralarni yorqin tarzda yodda saqlashni o'rganadi. Bu faoliyat

ularning: ijodkorlik salohiyatini oshiradi, estetik didini rivojlantiradi, qayta ishlash va bezatish mahoratini shakllantiradi.

! **Kerakli materiallar:** Fevicol MR (yelim), rangeela tempera bo'yoqlari, fevicryl 3D Neon Liners (yoki oddiy rangli markerlar), qayta ishlangan kichik quti (masalan, choy qutisi yoki sovg'a qutisi), bolalarning do'stlari yoki oilasi bilan tushgan rasmlari, OHP varag'i (shaffof qopqoq material), qalam, lineyka, qog'oz kesuvchi va qaychi, LED yorug'lik lenta (kichik LED chiroqlar), 2 dona tish cho'tkasi yoki yog'och tayoqchalar (stend sifatida) zarur bo'ladi.

✓ **Yasash bosqichlari.**

1. Qutini tayyorlash. Qayta ishlangan kichik qutining old tomoniga surat ko'ringan deraza shaklida to'rtburchak kesing. Derazani ichki tomonidan OHP varag'i bilan yoping (bu oynaning o'rnini bosadi).

2. Ramkani bezatish. Qutining tashqi tomonini tempera bo'yoqlar bilan bo'yab, 3D linerlar bilan naqshlar chizing. Xohlagancha stiker, chaqmoqcha, yoki marker bilan bezash mumkin.

3. Rasmni joylashtirish. Bolaning tanlagan suratini ichki tarafdin derazaga qarama-qarshi joylashtiring. Surat va OHP varag'i orasida ozgina masofa qoldirilsa, 3D effekt bo'ladi.

4. LED chiroqni biriktirish. LED lentani qutining ichki perimetri bo'ylab yelim

bilan mahkamlang. Agar kichik yoritkichlardan foydalansangiz, ularni burchaklarga joylashtiring. Yoritgichlarni batareya bloki bilan ulang yoki USB orqali quvvatlansa, orqa tarafda chiqish teshigi qoldiring.

5. Stend yasash. 2 ta yog‘och tayoqcha yoki eski tish cho‘tkalarini koptok shaklida egib, orqa tomoniga yelimlang – ramka tik turishi uchun tayanch bo‘ladi.

Tarbiyaviy ahamiyati: “Kreativlik va vizual dizayn ko‘nikmalari, qo‘l mehnati va diqqat-e‘tiborni rivojlantirish, estetik zavq, hissiy ifoda, o‘z xotiralarini qadrlash, ularga ijodiy yondashuv berish kabilarni o‘z ichiga oladi.



Chiqindi materiallaridan 3D ochiluvchi (pop-up) tabrik kartasi.

Ota-onalar farzandiga oddiy kartani ajoyib 3D tabrik kartasiga aylantirish orqali san‘at, hunarmandchilik va qayta ishlashni uyg‘unlashtirish imkonini berishi mumkin. Bu faoliyat natijasida: “Kreativlikni rivojlantiriladi, qo‘l mehnati va tasavvurni kuchaytiriladi, ekologik ongni shakllantiriladi”.

! Kerakli materiallar: Fevicol MR (yelim), qayta ishlangan eski quti (masalan, sovg‘a qutisi), komiks sahifalari (eski jurnal yoki kitobdan), rangli grafik qog‘ozlar (qizil, sariq, ko‘k, qora), ruchka (marker), gofrirovka karton qismi yoki bezakli parcha, qaychi, qalam, lineykalar kerak bo‘ladi.

✓ Yasash bosqichlari.

1. Asosiy kartani yasash. Qayta ishlangan kartonni tekis holatda ikkiga buking – bu kartaning asosiy shakli bo‘ladi. Old tomoniga bezakli grafik qog‘oz yoki gofrirovka kartonni yopishtiring.

2. Ichki 3D effekt yasash. Kartaning ichki tomonida markaziy joyda ikkita kesik qiling (2–3 sm). Kesilgan qismi orqaga buking va ichkariga itaring – bu “pop-up”

qism bo'ladi.

3. Bezatish va shaxsiylashtirish. Komiks sahifasidan qahramonlar yoki ko'zni quvontiradigan tasvirlarni kesib oling va ularni pop-up qismga yelimlang. Rangli grafik qog'ozdan yurakcha, yulduzcha, gulcha kesib olib, ichki va tashqi qismini bezang.

4. So'zlar va ishoralar. Ruchka bilan kartaning ichki va tashqi tomoniga tabrik so'zlari yoki motivatsion yozuvlar yozing: Masalan: "Senga omad tilayman!", "Sen ajoyibsan!" yoki "Do'stlik abadiy!" kabi.

5. Yakunlash. Barcha qismlarni mustahkamlang va qurishini kuting. Tayyor bo'lgach, ochganda 3D element oldinga chiqadi!

Tarbiyaviy ahamiyati: Mayda motorikani rivojlantirish, kreativlik, loyihalash ko'nikmalarini mustahkamlash, qayta ishlash orqali ekologik ongni kuchaytirish, tuyg'ularni ifoda etish va muloqotni rivojlantirish kabilarni o'z ichiga oladi.



Qayta ishlangan shisha idishlar bilan o'zga sayyoralik (kosmik) mavzusidagi mashg'ulot.

**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda katta hajmli detallar va yumshoq shakllardan foydalanish, oldindan kesilgan yoki yarim tayyor materiallar bilan ishni soddalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bo'yash bilan bog'liq mashg'ulotlarda shimgichli cho'tka yoki qo'lda bo'yash usulini tanlang.*

Bu mashg'ulot orqali o'qituvchi va ota-onalar farzandini o'z tasavvuri bo'yicha boshqa sayyoralardan kelgan mavjudotlar olamiga sayohatga olib chiqish uchun mazkur mashg'ulot tavsiya qilinadi.

Ushbu qiziqarli faoliyat orqali ular: ijodiy tasavvurini kengaytiradi, qo'l harakatlari rivojlantiradi, qayta ishlashning foydasini anglaydi.

! Zarur materiallar: Qayta ishlangan kichik shisha idishlar (masalan, murabbo, qahva, yoki ziravorlar bankasi), fevicryl akril bo'yoqlar (yorqin ranglarda: yashil, binafsha, sariq), fevicryl shilpkar (plastik model massasi), cho'tkalar, qog'oz kesuvchi yoki pichoq, qalam, qora marker.

Bezash uchun: harakatlanuvchi ko'zlar, yumshoq quloqlar, kichik simlar va hokazolar.

✓ **Yasash bosqichlari:**

1. Shisha idishni tayyorlash. Shisha idishni ichidagi barcha qoldiqdan tozalang va quriting. Sirtini nam mato bilan artib, bo'yoqqa tayyor holga keltiring.

2. Idishni bo'yash. Tanlangan akril rang bilan idishni to'liq bo'yab chiqing (masalan, yashil — begona mavjudot uchun). Qurishiga vaqt bering. Keyin ikkinchi qavatni bo'yasangiz, yanada tiniq rang hosil bo'ladi.

3. Shilpkar bilan shakllar yasash. Shilpkar plastmassadan o'zga sayyoralik mavjudotning antennalari, quloqlari, dum yoki tanasining shaklini yasang. Bu qismlarni idishga yelim bilan yopishtiring (yoki to'g'ridan-to'g'ri shilpkar bilan biriktiring).

4. Ko'zlar va mimikalar. Harakatlanuvchi ko'zlarni idishning old qismiga yopishtiring. Marker bilan og'iz, qosh, yoki boshqa ifodalarni chizing.

5. Qo'shimcha bezaklar. Yaltiroq qog'oz, kichik simlar, yoki rangli qog'ozlardan o'zga sayyoralik mavjudotning ko'rinishini bezang. Masalan, boshidagi antennalar, orqa qanotlar, spiral dumi kabilar.

Tarbiyaviy ahamiyati nozik mayda qo'l motorikasi, qo'l bilan bajariladigan ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodkorlik va tasavvurni oshirish, qayta ishlashga bo'lgan ongni kuchaytirish, hikoya qilish qobiliyatini rag'batlantirishi (*farzand bu o'zga sayyoralik mavjudotlar haqida afsona to'qib berishi*) mumkin.

3-KEYS: ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR

San'at va hunarmandchilik faoliyatlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun nafaqat ijodiy o'sishni, balki psixomotor, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ham juda muhimdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan san'at va hunarmandchilik faoliyatida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- ✓ oddiy, takrorlanuvchi harakatlarga asoslangan, tushunarli va bajarish oson bo'lishi;
- ✓ ko'p bosqichli bo'lmagan holatda bola diqqatini jamlay oladigan qilib, tez charchaydigan bolalar ham inobatga olinishi;
- ✓ Sensor rivojlanishga ham alohida ahamiyat berib, turli materiallarni ushlash, kesish, yopishtirish orqali sezgi organlari simulyatsiya qilish;
- ✓ har bir bola o'z imkoniyatiga qarab qatnasha olishini inobatga olish (*masalan, tayyor shakllarni yopishtirish yoki rang berish bilan chegaralash mumkin*);
- ✓ o'ziga ishonchni oshirish va kommunikatsion rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- ✓ ekologik xavfsiz materiallardan foydalangan holda tashkil qilish va shu orqali sog'liqni saqlash talablariga javob berishi zarur.

Sensor mashg'ulotlar: Turli xil materiallarning tuzilishi, og'irligi va harorati bolalarning sensor sezuvchanligini rivojlantiradi.

Ijodiy ifoda: Chiqindi materiallardan foydalanish bolalarga o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini turli yo'llar bilan ifoda etish imkonini beradi.

Atrof-muhitga hurmat: Qayta ishlash va chiqindilardan foydalanish orqali bolalarda ekologik ong va atrof-muhitga nisbatan hurmat shakllanadi.

- **Karton qutilar va rulonlardan minoralar yoki ko'priklar qurish.**

Karton qutilar va rulonlardan minoralar yoki ko'priklar qurish orqali bolalarning kreativlikni, muhandislik ko'nikmalarini va ekologik ongini rivojlantirish mumkin.

! Kerakli materiallar: Karton qutilar (turli o'lchamdagi), hojatxona qog'ozi yoki sochiq rulonlari, qaychi (pichoq), yelim (skoch), bo'yoqlar va bezaklar (ixtiyoriy).

Asosiy tuzilmani tayyorlash: Katta karton qutini asos sifatida tanlang, qutining ustki qismini oching va ichki qismini mustahkamlash uchun rulonlarni vertikal holatda joylashtiring.

Qavatlar qo'shish: Har bir qavat uchun kichikroq karton qutilardan foydalaning, har bir qavatni rulonlar yordamida bir-biriga bog'lang.

Bezaklar qo'shish: Minorani bo'yoqlar bilan bezang, derazalar, eshiklar yoki boshqa detallarni chizing (kesib olish ham mumkin).

Maxsus ta'lim amaliyotida Reggio pedagogika.

- **Men kimman? (Identifikatsiya va ifoda).**



Maqsad bolani o'zini tanitish, his-tuyg'ularini ifoda qilishga o'rgatishdir.

✓ **Zaruriy vositalar:** Rasm qog'ozlari, bo'yoqlar, plastilin, oynalar.

Bola o'zini rasm yoki plastilin orqali tasvirlaydi. So'ng o'z ismini va qanday his qilayotganini aytadi yoki imo-ishora bilan bildiradi. Rasm va bola izohi suratga olinadi.



- **Mening hislarim (Sensor mashg'ulot).**

Maqsad alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda sezgi organlari orqali dunyoni idrok etishini rivojlantirishdir.

✓ **Zaruriy vositalar:** To'qimalar (yumshoq, qattiq, silliq), qum, suv, tovushli materiallar.



Bolalar ko'zini yumib, turli materiallarni ushlab ko'rishadi. O'z his-tuyg'ularini rasm yoki og'zaki (yoki imo) tarzda ifoda qilishadi. Bolalarning ifodalari yozib olinadi yoki audio tarzda saqlanadi.



- **Mening oilam** (*Sotsiopedagogik loyiha*).

Maqsad oila haqida fikr yuritish va unga bo'lgan ijobiy munosabatlarni rivojlantirishdir.

☑ **Zaruriy vositalar:** Rasm, fotolar, bo'yoqlar.

Bola o'z oilasi yoki yaqin kishilarining rasmini chizadi. O'qituvchi yordamida u kimni chizganini aytadi. Bolalar ishlarini guruhda baham ko'rishadi. Har bir ish-

dan surat olinadi va bolalar izohi bilan birga saqlanadi.



- **Tabiat men bilan** (*Kuzatuv loyihasi*).

Maqsad tabiiy jarayonlarni kuzatish va ularni san'at orqali ifodalashdan iborat.

☑ **Zaruriy vositalar:** Barglar, gul, shamol quvurlari, akvarel bo'yoqlar va boshqalar.

Bolalar tashqariga chiqib barg yoki gullarni kuzatadi. Bevosita sezganlarini rasimga ko'chirib oladi yoki o'qituvchi yordamida so'zlaydi.



- **Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga to'g'ri qatorda yozish ko'nikmalarini shakllantirish.**




Qalam bilan ruchkani to'g'ri tutishga yordam beruvchi vositalarni yasash

- **Karton qutilar va rulonlardan ko'prik qurish.**

! **Kerakli materiallar:** Karton (yo'l qismi uchun), hojatxona qog'ozi (sochiq rulonlari (tayanchlar uchun)), ip yoki arqon (osma ko'prik uchun), qaychi (pichoq), yelim (skoch).

✓ **Tayanchlarni tayyorlash:** Rulonlarni vertikal holatda joylashtiring va ularni karton asosga mahkamlang.



Yo'l qismini tayyorlash: Kartonni ko'prikning yo'l qismi sifatida kesib oling va yo'l qismini tayanchlarga bog'lang.

Osma elementlarni qo'shish (ixtiyoriy): Agar osma ko'prik yasamoqchi bo'lsangiz, ip yoki arqonlardan foydalaning. Iplarni tayanchlarga bog'lab, yo'l qismini osib qo'ying.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan san'at va hunarmandchilik faoliyatlari.

- **Plastik suv idishidan tayyorlanadigan qo'l mehnati — "Shovqinli qo'l" o'yinchog'ini yasash.**

Maqsad: Sensor-motorik rivojlanish (tovush-harakat uyg'unligi), ijodiy ifoda, qo'l mushaklarini mustahkamlash, o'z mehnatidan zavqlanish hissini shakllantirishdir.

Ota-onalarga farzandingiz bilan birgalikda qiziqarli va rang-barang ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar tayyorlashi uchun tavsiya etiladi. Bu faoliyat ularning ijodkorligi, mayda qo'l motorikasi va harakat muvofiqligini rivojlantirishga yordam beradi. Eng muhimi - bu ishni bajarish juda oson va zavqli bo'ladi.

! **Kerak bo'ladigan materiallar:** fevicol MR (boshqa yelim), rangeela tempera bo'yoqlari, rangli grafik qog'ozlari, tasma (lenta), yog'och munchoqlar, bo'sh plastik suv idishi, qaychi.

✓ **O'yinchoqni yasash yo'riqnomasi:**

1. Idishni tayyorlash. Plastik suv idishini ichini yaxshilab yuving va quriting. Agar yorlig'i bo'lsa, olib tashlang.

2. Ichki qismini to'ldirish. Idish ichiga yog'och, mayda tugmalar, yoki rattling (shovqin chiqaruvchi) toshlar soling. Juda ko'p solmang — idish silkiganda ohangli tovush chiqishi kerak.


3. Idish og'zini yopish. Qopqog'ini mahkam yoping. Bola xavfsizligi uchun qopqoqni yelim bilan mustahkamlab yopishtiring.

4. Bezatish. Idish tashqi tomonini rangli grafik qog'ozlar bilan o'rash yoki tempera bo'yoqlar bilan bo'yash mumkin. Stikerlar, tasma, yoki iplar bilan ham bezash mumkin (masalan, halqa shaklida bog'lash). Bola o'z ismini yozib qo'yishi mumkin – shaxsiylashtirish uni xursand qiladi.

5. Tajriba va o'yin. Bola o'yinchoqni silkitib, tovush chiqarishini sinab ko'riladi. Bu faoliyatda bola tovush, harakat va nazoratni birgalikda o'rganadi.

Qog'ozdan tayyorlanadigan ekologik toza sandiqcha yasash.

* Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun katta parchalar, yumshoq materiallar va vizual ko'rsatmalardan foydalanish tavsiya etiladi.



Atrof-muhit muhofaza qilish bilan bir qatorda, chiqindilarsiz, foydali va ijodiy faoliyatga qo'l uriladi.

Hurmatli ota-onalar farzandingiz bilan qayta ishlangan materiallardan ekologik toza sandiqcha (piggy bank)

yasab, unga: "Pul tejash, mas'uliyatli bo'lish va atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish kabi foydali odatlarni o'rgatishingiz mumkin".

! Kerakli materiallar: Fevicol MR (yelim), rangeela tempera bo'yoqlari, to'p (yoki qog'ozdan yasalgan doira shakli), gofrirovka (bargli) varaq, rangli quvur tozalagich (pipe cleaner), qalam, lineyka, qog'oz kesgich yoki qaychi, kompas (doira chizish uchun), gazeta varaqalari (qayta ishlangan material sifatida), san'at bo'yoqlari va cho'tkalar kerak bo'ladi.

✓ **Yasash bosqichlari:**

1. Asosiy shaklni tayyorlang. Kompas yordamida gofrirovka varaqda katta doira chizing va uni kesib oling (bu – uningning tanasi bo'ladi). Gazeta varaqalarini yumaloq qilib o'rab, qog'oz to'p hosil qiling (yoki tayyor to'pdan foydalaning). Qog'oz doirani bu to'pning atrofiga yelim bilan mahkamlab yopishtiring.

2. Tangalar uchun teshik ochish. O'yinchoqning yuqori qismiga kichik o'lchamda uzunchoq teshik kesing. Bu yerga bola pul soladi.

3. Burun, quloq va dum yasash. Gofrirovka varaqdan yoki rangli qog'ozdan dumaloq burun, ikkita uchli quloq va dum yasang. Dum uchun quvur tozalagichdan foydalanib, spiral shaklga keltiring.

4. Yelimlab biriktirish. Quloq, burun va dum qismlarini tegishli joylariga yelim bilan mahkamlab yopishtiring.

5. Bezatish. Tempera bo'yoqlar bilan o'yinchoqni bo'yang – masalan, yashil, pushti yoki tabiat bilan uyg'un bo'lgan ranglardan foydalaning.

Bola o'z ismini yozib qo'ysa ham bo'ladi.

Tarbiyaviy ahamiyati: Qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish, pul tejash odatini shakllantirish, o'zi yasagan buyumlaridan foydalanish hamda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.



Qayta ishlangan yog'och tayoqchalar va qobiqlar bilan oyna ramkasi yasash.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun katta o'lchamdagi materiallardan foydalanish (kichik detallarni tutish qiyin bo'lishi mumkin), oldindan bo'yalgan yoki tayyor yog'och tayoqchalar berish, yasash bosqichlarini soddalashtirib, har bir bosqichni amaliy namoyish eting.

Sensor sezuvchanlik muammosi bo'lsa, yelim o'rniga ikki tomonlama lenta qo'llang.

Bu hunarmandchilik faoliyati nafaqat estetik go'zallikni yaratish, balki bolalarda aniqlik, diqqat, va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Farzandingiz bilan birgalikda tabiat ne'matlari – yog'och tayoqchalar va dengiz qobiqlaridan foydalanib, chiroyli oyna ramkasini tayyorlang.

! Zarur materiallar: Yelim (Fevicol MR), bo'yoqlar, kichik yog'och tayoqchalar (masalan, muzqaymoq tayoqchalari), turli o'lchamdagi va shakldagi qobiqlar, akril oynacha (kichik oyna bo'lagi), gofrirovka qilingan varaq yoki karton, qalam, kompas, qaychi.

! Yasash bosqichlari.

1. Asosni tayyorlash. Gofrirovka qilingan varaqdan kompas yordamida oyna o'lchamiga mos to'rtburchak (yoki aylana) kesib oling. Bu asosga oynani yopishtirish uchun joy qoldiring.

2. Oynani joylashtirish. Oynani karton asosining markaziga joylashtiring va yelim bilan mahkamlang. Quriguncha biroz kuting.

